

TURKIY XALQLAR ADABIYOTIDA MAXTUMQULI IJODI

*Ganiyeva Barchinoy Komiljon qizi
FarDU Filologiya fakulteti 3- bosqich talabasi*

Annotatsiya: Maqlada maxtumqulining hayot yo‘li va uning o‘ziga xos ijodiy faoliyati yoritilgan.

Tayanch so‘z va iboralar: Davlatmamat Ozodiy, lirika, Menglixon, „Ayrildim”, Turkman xalqi

Аннотация: В статье описан жизненный путь Махтумкули и его уникальная творческая деятельность

Основные слова и фразы: Давлатмамад Азоди, тексты песен, Менглихан, „Айрildim”, туркменский народ

Annotation: The article describes the life path of Makhtumquli and his unique creative activity.

Basic words and phrases: Davlatmamat Azadi, lyrics , Menglikhan, „Ayrildim”, Turkmen people

Maxtumquli 1724-yil Gurgon daryosi sohilidagi Hoji-govshon qishlog‘ida tug‘ilgan. Otasi Davlatmamat Ozodiy (1700-1760) ham shoir bo‘lgan. Maxtumquli boshlang‘ch talimni oilada o‘z otasidan olgan.

Bu haqida shoir o‘z she’rlaridan birida ta’kidlab o‘tadi:

„Ranju zahmat chekib, agar qilsam yod,

Qiblagohim- oam o‘qiygan ustod.”

Keyingi ta’limni Bekturdi eshondan, Xivadagi Sherg‘ozi va Buxorodagi Ko‘kaldosh madrasalarida olgan. Mxtumquli Sharq adabiyotini chuqur o‘zlashtirgan. Shoir „ San bo‘lsam” she’rida Abdusaid Abulxayr, Umar Xayyom, Abulqosim Firdavsiy, Nizomiy Ganjaviy, Hofiz Sheraziylarni katta hurmat bilan tilga oladi.

Firog‘iy taxallusi bilan ijod qilgan shoirning asosiy tirikchilik manbayi zargarlik bo‘lgan. Afg‘oniston, Eron , Hindiston, Ozarbayjon, Samarqand, Turkiston kabi bir qancha shaharlarga sayohat qilgan. Maxtumqulining oilaviy sharoiti xususida har xil rivoyatlar bor. Maxtumqulishunoslar Maxtumquli Menglixon ismli qizni chin dildan sevganini, biroq ularning turmush qurishiga imkon bo‘lmaganini yozadilar.

Menglixon Maxtumquliga qarindosh , ya’ni Xolasining qizi bo‘lib, ular yoshlikdan bir-biriga ko‘ngil qo‘yishadi, biroq Maxtumquli katta yo‘qotishlarni boshidan o‘tkazadi. Otasi va ikki ikki akasining o‘limi uning oilasini moddiy qiyin ahvolga olib keladi. Qizga beriladigan qalin pulini bera olmasligini bilgan Menglixonning akalari singlisining noroziligiga qaramasdan uni boshqa birovga turmushga berib yuborishadi.

Aynan „Ayrildim” she’ri tahliliga e’tibor qaratsak, Menglixonga bag‘ishlanganining guvohi bo‘lamiz.

Bulbulman ohu zor chekib,

Toza gulzordan ayrildim.

Ko‘zdan qonli yoshim to‘kib,

Ul sevar yordan ayrildim.

Mana shu misralarda Maxtumqulining ayriliqdan chekkan iztiroblari aks etgan. Toza gilzordan ayrildim deganda menglixonning ko‘ngli tozaligiga ham ishora qilib o‘tadi.

Yorga yarashar uch mucha ,

Sifatin qilayin ancha.

Labi shakar, og‘zi g‘uncha,

Ul zulfi tordan ayrildim.

Shirin jonda yo‘qdir toqat,

Jabri uning jonga rohat.

Qoshlari fitnayi ofat,

Chashmi xunhordan ayrildim.

Ushbu satrlar orqali qizning tengsiz go‘zalligi keltirilgan . Qizning shunchalar chiroyliligidan jonida orom yo‘qligi, xayoli doim undaligi haqidagi jumlalar ifodalangan.

Ayrildim g‘uncha gulimdan ,

Qora sochli sumbulimdan,

Xushovozli bulbulimdan

Shirin guftordan ayrildim.

Yuqoridagi keltirilgan parchadan ham Maxtumqulining ayrilik‘I, ko‘ngil nolalari aks etgan.

Telba ko‘nglim orzumoni

Barcha go‘zallarning xoni

Sakkiz jannatning bo‘stoni

U – mevazordan ayrildim.

Ellari bor ko‘k uvotli,

Salqin suvlak, yashil o‘tli.

Yurti go‘klang, Mengli otli,

Nozli dildordan ayrildim.

Maxtumqli ijodiga xos o‘ziga xos mahoratni ham ko‘rishimiz mumkin. U qizning yurti haqida so‘z yuritar ekan, oddiygina qilib go‘klang yurtidan demasdan , uning o‘ziga xos tabiat tasvirini ham keltirib o‘tadi.

Maxtumqli oshiq-maston,

Bag‘ishlab sha’niga doston.

Manzilgohi bog‘I bo‘ston,
Olma-anordan ayrildim.

Bu misralarda Maxtumquli qizning ta’rifiga bag‘ishlangan asarlar yaratganiga, qiz yashaydigan manzilning obodligiga va mana shu ozoda yerda tarbiya topgani ham qizga ijobiy ta’sir qilganini tasvirlaydi. Qizning go‘zalligini olma, anor singari qizil rangli mevalarga qiyoslashi ham qizning chiroylligidan dalolat beradi.

Maxtumquli bir qancha lirik she’rlar, liroepik dostonlar, g‘zal va muxammaslar yozgan. Bizgacha uning lirik , falsafiy, pand-nasihat xarakteridagi 10 ming misradan ortiq she’rlari yetib kelgan. Uning she’rlarida Turkman xalqining hayoti, urf-odatlari, o‘z davrining muhim ijtimoiy-siyosiy hodisalari, shoirning ichki kechinmalari teran ifoda etilgan. „ Bo‘lmasa” , „ Kelgay” , „ Bilan” , „ Naylayin” , „ Yetmas” , „Bular” va „ Ketdi zamona” kabi she’rlarida bu yaqqol seziladi.

Asarlarida Turkman urug‘larini birlashishga chaqirgan. Ular o‘rtasidagi nizolarni tugatishga uringan:

„ Taka, yovmut, ko‘klang, yozir, alili –

Bir davlatga qulik qilsak beshimiz...”

„Turkmanning...” she’rida shunday misralar bor:

Ko‘ngillar, yuraklar bir bo‘la boshlar,

Uyushsa, eriydi tuproqlar, toshlar,

Bir sufrada tayyor qilingan oshlar,

Yuksaladi baxt-iqboli turkmanning.

Bu she’r qo‘sinq qilib kuylangan, Turkman xalqi uchun XVIII- XIX asrlarda milliy madhiya bo‘lib xizmat qilgan. Lekin bu aniq g‘oyani noahil xalqining bir dasturxon atrofida jam bo‘lishini qanday qilib amalga oshirish mumkin edi? Mutafakkir shoir buning uchun bir boshga bo‘ysunish zarurligi, bir mardning atrofiga jam bo‘lish kerakligi g‘oyasini ilgari surdi. Shoir har qanday og ‘ir a mushkul sharoitlarda ham o‘z elining baxtiyor kelajagiga bo‘lgan ishonchini yo‘qotmaydi.

Fikrimizni xulosalaydigan bo‘lsak, Maxtumquli Firog‘iyning Turkman xalqi oldidagi eng buyuk xizmatlaridan biri uning hamjihatlik yo‘lidagi izchil kurashi va o‘zaro nizolarni keskin qoralashdir. Mana, qancha vaqtidan buyon mutafakkir shoirning ahillik, birlik haqidagi saboqlaridan Turkman xalqining necha-necha nasli tarbiyalandi va tarbiyalanmoqda. Barqaror davlatni orzu qilgan Maxtumquli g‘oyalarining naqadar haqligini hayot tasdiqladi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Quramboyev K., O‘zbek-turkman adabiy aloqalari, T., 1978.
2. Maxtumquli. Saylanma. Yozuvchi nashriyoti. 1995.